

HUDUDIIY INVESTITSION RIVOJLANISHNI BAHOLASHNING ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI

L.N.Jiyanov - i.f.f.d.(PhD)

*Buxoro davlat universiteti Buxgalteriya hisobi
va statistika kafedrası o`qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada hududiiy investitsion rivojlanishni baholashning zamonaviy yondashuvlari O'zbekiston misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsion faollik, investitsion salohiyat va investitsion risklarni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar, integral indekslar va ko'p mezonli baholash usullarining ilmiy mohiyati ochib berilgan. AHP usuli asosida iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional mezonlarning ustuvorligi aniqlanishi hududiiy investitsion tahlilning samarali vositasi sifatida asoslab berilgan. Hududiiy rivojlanishni baholashda normallashtirish va qiyosiy tahlil mexanizmlarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqola yakunida hududiiy investitsion siyosatni takomillashtirish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: hududiiy investitsion rivojlanish, AHP, integral indeks, investitsion tahlil, hududiiy salohiyat, risklarni baholash, kompleks yondashuv.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiiy rivojlanishning samaradorligi ko'p jihatdan investitsiyalar oqimi, ularni o'zlashtirish darajasi va ulardan olinadigan iqtisodiy natijalarga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, hududiiy investitsion rivojlanishni baholash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida hududiiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, mintaqalar iqtisodiy salohiyatini oshirish va xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni keng jalb etish bo'yicha izchil siyosat yuritilmoqda. Bu jarayonda hududlarning investitsion imkoniyatlarini ilmiy asosda baholash, mavjud xavflarni aniqlash va ustuvor tarmoqlarni belgilash muhim vazifa hisoblanadi.

An'anaviy yondashuvlar ko'pincha faqat investitsiya hajmi yoki iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga tayangan bo'lsa, zamonaviy baholash usullari salohiyat, institutsional muhit, ekologik holat va ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi. Shu bois hududiiy investitsion rivojlanishni ko'p mezonli va kompleks baholash zarurati kuchaymoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi hududiiy investitsion rivojlanishni baholashning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish, O'zbekiston hududlari misolida ularning qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hududiiy investitsion rivojlanishni baholash bo'yicha turli metodik qarashlar shakllangan. Ularda investitsion faollikni baholash

bilan bir qatorda hududiy salohiyat, institutsional rivojlanganlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi.

Ko'plab tadqiqotlarda integral indekslar hududiy rivojlanishni ifodalovchi qulay vosita sifatida ko'riladi. Bunday yondashuv alohida ko'rsatkichlarni birlashtirib, hududning umumiy investitsion holatini bir kompleks ko'rsatkich orqali baholash imkonini beradi.

AHP va boshqa ko'p mezonli qaror qabul qilish usullari iqtisodiy tahlilda tobora keng qo'llanmoqda. Bu usullar turli omillarning nisbiy og'irligini aniqlash, prioritetlarni belgilash va yakuniy baholash modelini shakllantirishda katta qulaylik yaratadi.

Adabiyotlarda, shuningdek, risklarni hududiy tahlil bilan bog'liq holda o'rganish zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Chunki investitsion rivojlanish barqarorligi faqat iqtisodiy salohiyatga emas, balki siyosiy, ekologik va infratuzilmaviy xavflarning qanchalik boshqarilishiga ham bog'liq.

Demak, zamonaviy yondashuvlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, hududiy investitsion rivojlanish ko'p qirrali tizim bo'lib, uni bir nechta mezon asosida kompleks tarzda baholash eng maqsadga muvofiq usul hisoblanadi.

Maqolada nazariy umumlashirish, qiyosiy tahlil, guruhlash, integral indekslash va ko'p mezonli baholash usullaridan foydalanildi. Mazkur yondashuvlar hududiy investitsion rivojlanishning turli jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

Baholash modelida investitsiya faolligi koeffitsiyenti, investitsiya o'sish sur'ati, investitsion salohiyat integral ko'rsatkichi, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional blok indeksleri asosiy indikatorlar sifatida qabul qilindi. AHP usuli mezonlarning o'zaro nisbiy ahamiyatini aniqlash uchun metodik asos sifatida qo'llanildi. Bu usul orqali hududiy investitsion rivojlanishning asosiy komponentlarini ustuvorlik darajasi bo'yicha tartiblash mumkin bo'ldi.

o'rganishimiz uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlardan biri investitsion salohiyatning kafolatgan o'sish sur'ati deb nomlanadi.

Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$K = \frac{I_t + R_t + P_t}{GDP_t}$$

Bunda - P_t - Hududda amalga oshirilgan va kutilgan investitsion loyihalar.

R_t - Tabiiy resurslar asosida olingan foyda.

Mazkur iqtisodiy ko'rsatkich vositasida sarmoniyalarni o'zlashtirish salohiyatini miqdoriy o'lchamlarda baholash va strategiyalarni aniqlash xizmat qiladi. Har bir hudud o'zida investitsiya jalb qilishida albatta u riskdan holi bo'lmaydi. Shuning uchun bu holatda investitsion risklarni baholash muhim hisoblanadi.

Investitsion risklarni baholashda, siyosiy, iqtisodiy va ekologik faktorlar hisobga olinishi zarur. Shuningdek quyidagi formulalar risklarni baholashda ishlatilishi mumkin:

$$R = \frac{R_{political} + R_{economic} + R_{environment}}{3}$$

Bunda - $R_{political}$ - Siyosiy risk ko'rsatkichi (xarakteristika: siyosiy barqarorlik, hukumat islohotlari).

$R_{economic}$ - Iqtisodiy risk ko'rsatkichi (xarakteristika: inflyatsiya, soliq o'zgarishlari).

$R_{environmental}$ - Ekologik risk ko'rsatkichi (xarakteristika: ekologik xavflar va tabiiy ofatlar).

Bu formulada hududning investitsiyani qabul qilishidagi risklar o'rtachasi hisoblanadi. Shuningdek bu aniqlangan natijadan hududning investitsion xavfsizligini baholashda foydalanish mumkin.

Shu bilan birga aniqlangan risk darajasi har bir hududning o'zining xususiyatidan chiqib diversifikatsiya qilinish mumkin. Investitsion risklarni diversifikatsiya qilinishi turli tarmoqlarga yoki geografik hududlarga taqsimlash orqali xavf darajasini kamaytirish mumkin. Quyidagi formula orqali bu ko'rsatkichni hisoblash mumkin:

$$RD = \frac{\sum R_i}{n}$$

Bunda - R_i - Har bir tarmoq yoki hudud bo'yicha risk darajasi.

n — Tarmoqlar soni hisoblanadi

Bu formula orqali aniqlangan risk diversifikatsiyasi hududlarda yoki sektorlarda diversifikatsiya qilingan investitsiyalarni ko'rsatadi. Hamda bu orqali riskni kamaytirishga yordam beradi. Rentabellik ko'rsatkichi bu jarayonda muhim tahlil obekti hisoblanadi. Investitsiyalarning rentabelligini baholashda olingan foyda va kiritilgan kapital o'rtasidagi mutanosiblikni yoki bog'liklikni aniqlash lozim. Rentabellikni baholash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$ROI = \frac{P_t}{I_t} \cdot 100$$

Bunda P_t - Investitsiyadan olingan sof foyda.

I_t - Investitsiyalarga kiritilgan jami mablag'.

Mazkur formulada ifodalangan ko'rsatkichlar sarmoya kiritish va undan foydalanish samaradorligini aniqlash bilan birga, investitsiya loyihasining iqtisodiy jozibadorligini namoyon etadi. Iqtisodiy mintaqalarning sarmoylarni jalb qilish va oz'lashtirish bo'yicha faolligini baholashni AHP (Saaty) usuli asosida ham amalga oshirishi mumkin. Unda integral indikatorlarning og'irlik darajalarini foizlarda yoki koeffitsiyentlarda ifodalanib, baholashning obyektivligi ta'minlash, omillarning ahamiyatini taqqoslash imkoni shakllantiriladi. Ijtimoiy, iqtisodiy, atrof-muhit

(ekologik) va institutsional kabi ko'rsatkichlar asosiy mezon sifatida tahlil ostiga olish y'oli bilan hududlarning rivojlanish samaradorligi va barqarorligini baholashning integratsiyalashgan yondashuvni shakllantiriladi.

Birinchi bosqichda mintaqalardagi investitsiya faoliyatining samaradorligini baholash uchun 4 ta asosiy mezon tanlandi:

- **S** – Ijtimoiy omillar
- **E** – Iqtisodiy omillar
- **Ec** – atrof-muhit omillari
- **I** – Institutsional omillar.

Sarmoyalar vositasida mamlakatning mehnatga layoqatli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlash va yashash sharoitlarini yaxshilash ijtimoiy omillar sifatida tahlil qilinadi. Investitsiyalar yordamida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yalpi daromadni o'sishi iqtisodiy omillar ifodalaydi. Kapital qo'yilmalari vositasida tabiiy boiliklarni saqlashga doir xavflarni kamaytirishni ta'minlash atrof-muhit mezonlarini belgilaydi. Boshqaruv institutlari vositasida investitsiya jarayonlarining qonuniy barqarorligi va investitsiya loyihalarini ishonchliligi ta'minlanadi. Yuqorida keltirilgan omillarni investitsiya faoliyatini istiqbollarini belgilash uchun tanlash davlat investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy investitsion rivojlanishni baholashda zamonaviy yondashuvlarning afzalligi shundaki, ular faqat investitsiya hajmini emas, balki hududning umumiy rivojlanish muhiti va barqarorligini ham hisobga oladi. Bu esa baholash natijalarini yanada ishonchli qiladi.

O'zbekiston hududlari misolida qaralganda, investitsion faollik va jozibadorlik ko'rsatkichlari iqtisodiy rivojlangan markazlarda yuqori bo'lishi kuzatiladi. Biroq resurslarga boy ayrim hududlarda salohiyat katta bo'lsa-da, ekologik va infratuzilmaviy muammolar yakuniy bahoni pasaytirishi mumkin.

AHP metodidan foydalanish iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va institutsional omillar o'rtasidagi nisbatni aniqlashga yordam beradi. Bu esa hududlarning kuchli va zaif tomonlarini aniq ajratish imkonini yaratadi.

Integral indekslash va normallashtirish usullari hududiy rivojlanishni bir necha alohida ko'rsatkich emas, balki yagona tizim sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu yondashuv ayniqsa strategik rejalashtirish, ustuvor yo'nalishlarni tanlash va resurslarni taqsimlashda qo'l keladi.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar risklarni baholashni ajralmas qism sifatida ko'radi. Suv tanqisligi, ekologik tahdidlar, transport cheklovlari, energiya ta'minoti bilan bog'liq uzilishlar yoki institutsional murakkabliklar rivojlanish istiqboliga bevosita ta'sir qiladi.

Umuman olganda, kompleks metodologiya hududiy investitsion rivojlanishni boshqarish bo'yicha qarorlarni yanada asosli va natijador qilishga xizmat qiladi.

Hududiy investitsion rivojlanishni baholashning zamonaviy yondashuvlari iqtisodiy tahlilni yanada chuqurlashtiradi va hududlarning real investitsion holatini ko'proq aniqlik bilan ko'rsatadi. Bunday yondashuv imkoniyatlar va risklarni uyg'un ravishda hisobga olishi bilan ahamiyatlidir.

AHP, integral indekslash va normallashtirish kabi usullar hududlar kesimida qiyosiy baholashni kuchaytiradi hamda ustuvor yo'nalishlarni aniqlashni osonlashtiradi. Shu sababli hududiy investitsion siyosatni shakllantirishda zamonaviy metodologik vositalardan foydalanish barqaror va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir.

Hududiy investitsion rivojlanishni baholashda integral indekslash va AHP usullarini amaliy boshqaruv tizimiga joriy etish zarur.

Viloyatlar kesimida investitsion monitoring tizimini shakllantirib, iqtisodiy, ekologik va institutsional ko'rsatkichlarni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq. Resurslarga boy, ammo infratuzilmasi sust hududlarda kompleks investitsion dasturlar ishlab chiqish lozim.

Hududlar bo'yicha strategik rejalashtirishda risklarni baholash blokini alohida va majburiy element sifatida kiritish kerak.

Ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari va hududiy boshqaruv organlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishni tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-son "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. Bochkov D.V. Investment design, M.: Direct-Media, 2016 68 p.

4. Boyan Tomov. Investments and regions. Brand mediya. Sofiya. 2017, 122 page.

5. Mamatov B.S, Xo'jamqulov D.Yu, Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: "Iqtisod – moliya". 2014 y. – 608 b

6. Roger Gibson. Formation of an investment portfolio. Financial M. risk management. Alpina. 2008. 276 p.